



A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE ESSENCE, FORMATION AND DEVELOPMENT OF A MULTI-PARTY SYSTEM IN SOCIETY

Abdurauf Abdullayev

Researcher

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Society, multipartyism, party, social philosophy.

Received: 08.09.23

Accepted: 10.09.23

Published: 12.09.23

Abstract: This article analyzes and discusses the topic of the social-philosophical approach to the essence, formation and development of the multi-party system in society.

JAMIYATDA KO'PPARTIYAVIY TIZIMNING MOHIYATI, SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA IJTIMOY-FALSAFIY YONDASHUV

Abdurauf Abdullayev

Tadqiqotchi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jamiyat, ko'ppartiyaviylik, partiya, ijtimoiy-falsafa.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ko'ppartiyaviy tizimning mohiyati, shakllanishi va rivojlanishiga ijtimoiy-falsafiy yondashuv mavzusi tahlil va muhokama qilingan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД К СУЩНОСТИ, СТАНОВЛЕНИЮ И РАЗВИТИЮ МНОГОПАРТИЙНОЙ СИСТЕМЫ В ОБЩЕСТВЕ

Абдурауф Абдуллаев

Исследователь

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общество, многопартийность, партия, социальная философия.

Аннотация: В данной статье анализируется и рассматривается тема социально-философского подхода к сущности, становлению и развитию

KIRISH

Inson yaralibdiki, turli rivojlanish bosqichlarini bosib o'tib o'z evolyutsiyasida ijtimoiy jihatdan tobora yuksalib bormoqda. Ayniqsa shaxsning jamiyat bilan birdamlashuvi, shu jamiyat a'zolari orasida tutgan o'rni kabilarni tadqiq etishda jamiyatdagi yoki jamiyat a'zolari orasidagi fikrlar xilma hilligi muhim o'rin tutadi. Kishilar birlashib o'z huquq va manfaatlarining ifodachisi o'laroq avval jamiyatga, keyinchalik davlatga asos soldilar. Mazkur davlat boshqaruvida esa, shubhasiz, turli fikrlar va qarashlarni o'zida aks ettirgan guruhlar paydo bo'ldi. O'z oldiga davlat hokimiyatini egallash va bu orqali davlat boshqaruvini qo'lga olishni maqsad qilib olgan guruhlar o'zlarining siyosiy maqsadlari mavjudligi bois siyosiy partiyalarga aylana bordilar.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi. Siyosiy partiyalarni ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar deb aytish mumkin.

ASOSIY QISM

Siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlar haqida gapirayotgan ekanmiz, avvalo, "Partiya" so'zining kelib chiqishiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ushbu atama lotincha "qism", "bo'lak" ma'nosini bildirib, dastlab Qadimgi Gretsiyada, Yunonistonda paydo bo'lgan. Bugungi siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida munosib o'ringa ega bo'lishi, avvalo siyosiy maqomni aniq tasavvur etishi, jamiyat siyosiy hayotida tutgan o'rni, maqsad va vazifalariga mos amaliy faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Shu o'rinda ko'p partiyaviylik xususida fikr bildirib ketsak. **Ko'p partiyaviylik** bu, - mamlakatda 2 va undan ortiq siyosiy partiyalarning mavjud bo'lishi. Ko'p partiyaviylik aholi keng qatlamlarining ijtimoiy faolligini oshiradi, fikrlar xilma-xilligini ta'minlaydi, saylovlarning demokratik asosda o'tishiga yordam beradi. Hozirgi demokratik davlatlarning deyarli hammasi Ko'p partiyaviylik tamoyiliga rioya qiladi. O'zbekiston Respublikasida 5 ta siyosiy partiya faoliyat olib boradi.

Dastlabki siyosiy partiyalar 17—18-asrlar Yevropada inqiloblar davrida paydo bo'la boshlagan (Xususan, Angliyada 18-asrning 2-yarmida Birlashgan Qirollik hukmron doiralari siyosiy jihatdan ajralib, hokim sinflarning 2 partiyasi — tori bilan vigi shakllandi. 19-asr o'rtalarida shu partiyalar asosida konservatorlar va liberallar partiyasi tashkil topdi) bo'lsada, Siyosiy partiyalarga o'xshash jamoa va tashkilotlar qadimdan mavjud edi. Afina geteriyalari, Rim optimat va populyarlari antik davrda Siyosiy partiyalar vazifasini bajarganligi tarixdan

bizga yaxshi ma'lum. Siyosiy partiyalarning universal shakli asosan, qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan kishilar guruhi va maxfiy tashkilotlar bo'lgan. Xususan, o'rta asrlar Yevropasida turli maqsadlar sabab qilib tuzilgan, keyinchalik hududlarni boshqarish vazifasini ham bajargan gospitalyer, tampliyer va tevton nomli diniy ritsarlik birlashmalari, Angliyada Yorklar va Lankasterlar, o'rta asrlar Arabistonida esa Ali tarafdorlari kabi o'z oldiga siyosiy maqsadni qo'ygan guruhlar mavjud edi.

Markaziy Osiyoda tarixan turli diniy tariqatlarning ko'p sonli tarafdorlari mavjud bo'lib, ular jamiyatda kishilarning turli ijtimoiy guruhlarini birlashtirgan edi. Xususan, yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqatlari shular jumlasidandir. Ammo mazkur ijtimoiy guruhlar o'zida diniy mazmun kasb etgan holda ulardan hech birining faoliyatida siyosiy maqsad ko'zlanganligi namoyon bo'lmagan. To'g'ri, ushbu tariqat rahnamolarining omma orasidagi nufuzi sabab siyosatga ta'sir etish kuchi va imkoniyati mavjud bo'lgan. Gohida siyosatga aralashib jang vaqtlarida urushayotgan davlatlar orasida sulh tuzilishiga ham sababchi bo'lishgan. Ammo ular siyosiy hokimiyatga chiqib davlat boshqaruviga intilmaganlar. Markaziy Osiyoda diniy guruhlarining siyosiy hokimiyatga intilishini biz XVII-asr ohiri va XVIII-asr boshlarida Chodak xo'jalarining tushkunlikdagi Ashtarxoniylar sulolasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib Farg'ona vodiysida bir oz boshqaruvni qo'lga olgan vaqtda ko'rishimiz mumkin. Aynan shu kabi holat Sharqiy Turkistonda ham kuzatilgan. Ammo bularning hech biri siyosiy partiya shaklida bo'y ko'rsatmagan. Markaziy Osiyoda siyosiy partiyalar tuzish uchun qulay tarixiy ijtimoiy va siyosiy vaziyat 19-asrning oxiri — 20-asrning boshlarida yuzaga kela boshladi. Bu vaqtda jadidlar va boshqa ma'rifatparvarlar dastavval, xalq orasida ma'rifatni yoyib, uni savodli qilish, keyingi faoliyat davomida xalqning siyosiy faolligini oshirish, ommani Chor Rossiyasi tarkibida muxtoriyatga erishishga da'vat qilish, o'lkada mustaqil milliy davlat yaratish masalasini o'z oldilariga maqsad qilganlar. Ular o'z faoliyatlarida madaniy-ma'rifiy rivojlanish bosqichini bosib o'tib, siyosiy bosqichga qadam qo'ya boshlagan. Ular, xususan, "Yosh buxoroliklar" "dastlab "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") maxfiy jamiyati shaklida tuzilgan. 1910-1920-yillarda "Yosh buxoroliklar" partiyasi deb atalgan. Unga taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag'allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lgan"ligining o'ziyoq ular faoliyatida siyosiy partiya mos elementlar mavjudligini ko'rsatadi.

Lekin ularning intilishlariga chor hokimiyati va mahalliy hukmdorlar boshdan qarshilik qildi. Natijada, mintaqada 1917-yilgacha bo'lgan davrda siyosiy, nazariy va tashkiliy jihatdan yetuk Siyosiy partiya shakllanib ulgurmad. Oktabr to'ntarishi arafasida va undan keyin o'zini

namoyon eta boshlagan siyosiy tashkilotlar va ularning rahbarlari qatag'onga uchradi, badarg'a va surgun qilindi. ["Milliy ittihad"](#), [Yosh buxoroliklar](#), [Yosh xivaliklar](#) kabi tashkilotlar ana shunday tashkilotlar sirasiga kirar edi. Sho'rolar davrida esa hukmron kommunistik partiyadan boshqa partiyalar tuzish ta'qiqlandi.

Mamlakatimiz O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng aholining turli guruhlari manfatlari asosida bir qator siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat olib borishi uchun imkoniyat yaratildi. Mamlakatda hozirgi paytda 5 ta siyosiy partiya – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston „Adolat“ sotsial demokratik partiyasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi mavjud bo'lib, ular o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr, yangi tahriri 2023-yil 30-aprel), O'zbekiston Respublikasining „Siyosiy partiyalar to'g'risida“gi (1996-yil 26-dekabr) qonuni, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida”gi (2004-yil 30-aprel) qonun, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi (2007-yil 11-aprel) qonun hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlari, shuningdek, o'z ustavi asosida amalga oshiradi. Siyosiy partiyalar tashkil etish huquqi yangi tahrirdagi mamlakat konstitutsiyasining 39-moddasida mustahkamlangan bo'lib, qonunchilikka ko'ra, siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, o'z xohish-irodalarini erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik printsiplari asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi. Lekin, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;

[O'zbekiston Respublikasi](#) suverenitetiga, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi; urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi; xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi; milliy va diniy ruhdagi partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qiluvchi shaxslar (sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari); ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar. Siyosiy partiyalarga a'zolik faqat yakka tartibda qayd etiladi. Bir partiyaning a'zosi ayni vaqtda 2 partiyaga a'zolikka qabul qilinmaydi. Siyosiy partiyalarni tuzish uchun kamida 8 ta hududiy sub'yektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida 20 ming fuqaroning imzosi

bo'lishi talab etiladi. Siyosiy partiyalar saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda qatnashadi va qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etadi. O'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida Siyosiy partiyalarning fraksiyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlarini tuziladi. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunda Siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish, ro'yxatga olish, partiyalar mulki, ular faoliyatini to'xtatish tartibi va boshqa masalalar to'liq ko'rsatib berilgan. Ko'rib turibmizki, bu borada O'zbekiston ko'ppartiyaviy tizim faoliyatini shakllantira olgan va bu tizim mamlakatda tobora rivojlanib bormoqda.

Ko'ppartiyaviy tizim demokratik davlatlarda jamiyat rivoji uchun xizmat qiluvchi muhim bir institutga aylanib ulgurgan. Ushbu fikrning amaliyotdagi isbotini AQSh misolida ko'radigan bo'lsak, u yerda partiyalar faoliyatini tartibga solib turuvchi qonunchilik tizimi mavjud. Bu qonunchilikning asosiy qismini shtatlarning alohida qonunlari tashkil etadi. AQShda 2 ta asosiy partiya qolgan partiyalardan ustunlikka ega.

Bu partiyalardan biri "Respublikachilar" partiyasi bo'lib, 1854-yili tashkil topgan. "Respublikachilar" partiyasi faoliyati AQSH xalqining turli tabaqalarni o'z orqasidan ergashtirsa ham, asosiy maqsadi monopoliyalarni manfaatini himoya etish.

"Respublikachilar" partiyasi raqibi "Demokratik" partiyadir. U 1928-yili tashkil topgan, xalq orasida katta e'tiborga ega. Asosiy maqsadi millatni rivojlantirish uchun, tadbirkorlikka qaratilgan. Tadbirkorlarga sharoitlar yaratib berish, buning uchun har xil ko'rinishlar o'tkazish kerakligini talab qilinadi. Ularni saylov paytida ayniqsa uyushmalar qo'llab quvvatlaydi. Tashqi siyosatda harbiy ustunlikka erishishni maqsad qilib qo'ygan.

Ikkala partiya ham kuchli bo'lib, AQSH Kongressida o'z fraksiyalariga ega. Aynan shu ikkala partiya orasidan prezidentlikka nomzod qo'yiladi. Bu partiyalar bir biriga juda o'xshash. Ammo AQSHda ushbu partiyalardan tashqari boshqa partiyalar ham mavjud. Masalan, proxibitsionistlar partiyasi – alkogol ichimliklar savdosini taqiqlashni maqsad qilib olgan. Yana uchta partiya bor, (bular sotsial demokrat, ishchilar sotsialistlar, sotsialistik leyboristlar partiya) ammo ularning mavqei baland emas.

Siyosiy partiyalar qayerda va qanday maqsadda tuzilmasin, agar ular siyosiy faollik ko'rsatmasa, o'z elektoratining manfaatlarini himoya qilib samarali ish tashkil etmasa, hech qachon o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmaydi va jamiyatning ma'lum bir ijtimoiy qatlamining huquq va manfaatlarini ifodachisi sifatida bo'y ko'rsata olmaydi, real voqelikka aylana olmaydi. Xususan 2017-yilda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston

Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishida O'zbekistondagi mavjud siyosiy partiyalar faoliyati haqida fikr bildirar ekan, prezident Shavkat Miromonovich shunday degan edilar: **“Bugun zamonning o‘zi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan o‘zgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yo‘lga qo‘yishni talab etmoqda. Endi “mudrab yotgan” siyosiy partiyalar uyg‘onishi lozim. Ular balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonishi, ularning qalbidan joy olishi kerak”.**

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kishilik jamiyatida ko'ppartiyaviy tizim o'z-o'zidan shakllanib qolgani yo'q. U jamiyat va davlatning uzoq davom etgan evolyutsiyasi mahsuli o'laroq, odamlarning inson, uning hayoti, erki, huquqlari, davlat va jamiyatning farovon hayotga erishishdagi mas'uliyati kabilar haqidagi ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy-ma'naviy hamda iqtisodiy-siyosiy yondoshuvlari natijasida yuzaga kelgan. Kishilar o'z orzu-istaklarining ro'yobi sifatida, huquq va manfaatlarining ifodachisi sifatida turli ijtimoiy guruhlariga, jamiyatga va davlatga birlashib bordilar. Farovon hayotga erishish yo'lidagi intilish odamlarni bir maqsad yo'lida birlashishga va o'z maqsadiga qo'shilganlar bilan birga hokimiyat boshqaruvini qo'lga kiritib, huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga doimiy ravishda undab keldi. Natijada, jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirgan turli mazmundagi siyosiy partiyalar paydo bo'ldi. Bir davlatni ichida bir nechta siyosiy partiyalarning tuzilishi natijasida bir nechta mustaqil maqsadlarni ifoda etuvchi partiyalardan iborat ko'ppartiyaviy tizim shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Birlashgan_Qirollik
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yosh_buxoroliklar
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_partiyalar.
5. https://vaqt.ucoz.com/publ/huquq/siyosiy_partiyalar_va_partiyaviy_tizimlar/11-1-0-1191
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. <https://president.uz/oz/lists/view/781>